



TOG'AY MUROD QISSALARIDA MAQOL JANRINING QO'LLANILISHI

Otaboyeva Dilnoza

Urganch Ranch texnologiya universiteti o'qituvchisi

Quryozova Karomat Javlonbek qizi

Urganch Ranch texnologiya universiteti 2-kurs talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada, Tog'ay Murod asarlaridagi folklor an'analarining o'ziga xos janr xususiyatlari tahlil qilindi. Maqollarning nasrdagi, hayot haqiqatlari bilan mujassamlashganiga, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lganiga, ijtimoiy hayotning barcha bosqichlarida, yetakchi o'rin sifatida adabiyot va san'atda muhim o'ringa ega ekanligiga, uning asarlarida maqollar milliy urf-odat va xalq hayotini yanada jonlashtirishda muhim ahamiyat kasb etgan.*

Kalit so'zlar: *maqol, xalq og'zaki ijodi, sav, otalar so'zi, mehnat, shoir ijodi.*

Аннотация. *В данной статье подробно проанализированы жанровые особенности фольклорных традиций в творчестве Тогая Мурада. Также такие известные рассказы писателя, как «Песня земли Момо» и «Звезды горят вечно», раскрывают художественно-эстетические и духовно-воспитательные задачи использования национальных традиций, общечеловеческих ценностей, особенно пословиц. Это помогает понять гармонию национальных и современных элементов в узбекской прозе.*

Ключевые слова: *пословица, фольклор, сав, отцовское слово, труд, труд поэта.*



Annotation. *In this article, specific genre features of folkloric traditions in the works of Togay Murad were extensively analyzed. Also, the writer's famous stories such as "Momo Earth Song" and "Stars burn forever" revealed the artistic-aesthetic and spiritual-educational tasks of using national traditions, human values, especially proverbs. This serves to understand the harmony of national and modern elements in Uzbek prose.*

Key words: *proverb, folklore, sav, word of fathers, work, poet's work.*

Maqol-xalq ogʻzaki janri hisoblanib, muayyan aniq shaklga ega boʻlgan, chuqur, mazmunli qisqa va loʻnda, obrazli va obrasiz, mantiqiy va grammatik tugallangan maʼnoli, hikmatli iboradir. Maqollar, xalq oʻzining hayotiy tajribasidan olgan xulosalarini, mulohazalari orqali ifodalagan. Oʻzbek maqollari mavzusiga qarab xilma-xil va rang-barangdir. Maqollarda xalqning hayotiy tajribalari, tarixi, hayoti, ijobiy va salbiy fazilatlarlari mujassamlashib, asrlar mobaynida xalq orasida sayqallanib, ixcham va sodda shaklda yetib kelgan. Maqollar ham mavzusiga koʻra turli xil mavzularda yoritiladi. Masalan, Vatan, mehnat, ilm-hunar, doʻstlik, ahillik, til, sevgi va muhabbat kabi mavzularda ham xalqqa taqdim etilgan. Maqollarning asosiy xususiyati mazmun va shaklning teng birligi, koʻp hollarda qofiyadoshlik, baʼzan koʻp maʼnolilik maqollarda ifodalanayotgan fikr va mazmun keng qamrovli boʻladi. Buning yorqin misolini Mahmud Koshgʻariyning "Devonu lugʻotit turk" asaridan keltirilgan namunalarga murojaat qilamiz. Masalan "Besh qoʻl barobar emas"[1] Bundan kelib chiqadiki hamma ham bir xil emas degan maʼnoni ilgari suradi. Bundan ming yil avval ajdodlarimiz maqollarni "sav" deb ataganlar. Maqollarni yana "Otalar soʻzi - aqlning koʻzi", "Oʻzbekcha otalar soʻzi", "Oʻzbek xalq maqollari" ham deyishgan. Maqollar koʻp asrlik kuzatishlar, turmush tajribalari zahirida yuzaga kelgan fikrlarni ixcham shaklda ifodalanib kelinmoqda. Deyarli barcha asarlarda maqollarni uchratishimiz, oʻsha zamon turmush tarzi, obrazlarning ruhiyatini



ochib berishga xalq og‘zaki ijodi namunalaridan bahramand bo‘lishimizda Tog‘ay Murodning eng sara namunalarida uchratishimiz mumkin. Tog‘ay Murodning "Momo yer" qissasida "Yo‘l azobi-go‘r azobi", "Qishning g‘amini yozda ye", "Otdan tushsa-da uzangidan tushmadi", "Yetti o‘lchab bir kes" kabi maqollarni uchratishimiz mumkin. Masalan

Endi, ko‘nglingizga olmang-u, shu ota-bobongiz ismi sharifida gap ko‘p. Ota bobolarimiz "yetti o‘lchab bir kes" ib, ismi sharif qo‘yadi. Hech bandani ota-bobosi ismi sharifidan judo etmasin. [2.] deya aytib o‘tilgan.

Tog‘ay Murodning "Yulduzlar mangu yonadi" asarida ham shu kabi maqollarni uchratishimiz mumkin. Masalan "Menga qara, zo‘r-zo‘rlarini bir yerga yig‘ sho‘rchiliklar kepti... Tushundingmi? O‘zing bosh bo‘l. Qurga tartib bilan chiqar. Shoshma, yetti o‘lchab bir kes. Sho‘rchiliklarga o‘ngi chapiga e‘tibor qil. Ushbu maqolda kurashda yoinki har qanday ishda shoshqaloqlik yaramasligi yetti o‘lchab bir kesish kerakligi ko‘pni ko‘rgan Bo‘ri polvon tilidan berilmoqda.[3]

Tog‘ay Murodning ikkala asarida ham bir xil maqol qo‘llangan lekin ikki xil vaziyat, ikki xil muammo, lekin ikkalasida ham bir xil ma‘no kasb etgan. Odam qiliyotgan ishini yaxshilab o‘ylab, rejalashtirib, keyin qaror qabul qilish kerak degan fikrlar ilgari surilgan. Bu maqollarning tubida "mehnat" so‘zi yashirin ma’noda qo‘llangan.

Tog‘ay Murodning "Momo yer" qissasida "Mayli, hali hozir askarlik havosi bor. Keyin -keyin o‘ziga keladi, deya o‘yladi. Ammo askar o‘ziga kelmadi. Mo‘ysafid otasi toqati toq bo‘ldi, otasi yorildi: Ulim, erta birov aytgan akan, otangni ko‘rdim - ahmadi forig‘, enangni ko‘rdim- tovonni yoriq, deb. Otang shul, enang shul, qo‘y endi, o‘z tilingda gapir.[2.3]

Mazkur asarda ushbu maqolning tahlilini berib o‘tadigan bo‘lsak, Xumor momo choli va uning askarlikdan qaytgan o‘g‘li haqida, to‘g‘ri u paytlari



askarlikdan sog' omon qaytish qanchalar quvonchli bo'lgan. Lekin tilini sotib kelsin degani emas-ku, bu yerda Bahrom ismli qahramonimiz haqida gap ketyapti, u uyiga qaytganiga bir necha kun o'tganiga qaramay hamon rus tilida gapirishda davom etaverdi. Otasi ha mayli hali askarlik havasi bilan yuribdi deya indamadi, keyinchalik o'g'lim yetar endi, o'z tilingda gapir otangning enangning ahvoli shu biz mana seni katta qildik askarlikka yubordik sen uchun qancha mehnat qildik, qo'y endi o'z tilingda gapir, tiling bilan emas, mehnating samarasi bilan elga tanil. O'z harakating, aqling mehnating bilan o'zingni ko'rsat degan ma'noda yuqoridagi maqol qo'llangan.

Tog'ay Murodning har bir asarida o'ziga xos chuqur ma'no yashiringan, uning har bir asarida maqollarni qo'llashi, insonning eslab qolish qobiliyati, asarning mohiyati esa maqolning o'zida mujassam bo'lishi bilan ajralib turadi. Uning asarlarini o'qir ekanmiz xalq o'g'zaki ijodimiz qanchalar boy ekanligiga guvoh bo'lamiz. Chunki uning har bir asarida maqol namunalari uchratishimiz mumkin.

Maqol janrini yanayam chuqurroq o'rganar ekanmiz, maqollarda yengil yumor, o'rinli kesatq, kuchli tasdiq, xalqimiz tarixini mukammal ochib bera oladigan mukammal haqiqatlar, biror bir ishni amalga oshirishdagi tasdiq va inkor ma'nolarida ham ishlatiladi. Bu jihatlar esa maqollarning asrlar davomida og'izdan-og'izga o'tib yashashini va halihanuz insonlar tilidan tushmay kelayotgani buning yorqin dalilidir. Tog'ay Murod o'z asarlarida xalq tafakkurini, urf-odatlarini va o'zbek mentalitetiga xos qarashlarni yetkazishda maqollardan unumli foydalangan. Bu uslub asarlarni milliy ruh bilan boyitgan va o'quvchiga yanada yaqin kelgan. Tog'ay Murod maqollarni quruq takrorlamay, ularni ma'no jihatidan asar ruhiga mos tarzda ishlatgan. Natijada, qissalar yanada tabiiy, ta'sirchan va hayotiy ruhda yozilgan. Uning maqollardan foydalanish uslubi



adabiyotimizda xalqona til va falsafiy chuqurlikni uyg'unlashtirishning yorqin namunalaridan biridir.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tishimiz kerakki, maqollar hayotiy tajribalar mahsuli hisoblanishi, insonlarning kundalik hayotida uchraydigan holatlar, xatolar va yutuqlarga asoslangan. Maqollar insonlarni fikrlashga, to'g'ri yo'lni tanlashga va hayotiy tajribalardan saboq olishga chorlaydi. Shu sababdan xalq o'g'zaki ijodimiz halihanuz xalq orasida sevib qo'llanib kelinmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O.Madayev, T.Sobitova. Xalq og'zaki poetik ijodi. Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent: 2010.(33-34) bet
2. Tog'ay Murod "Momoyer qo'shig'i" qissasi 3- bet.
3. Tog'ay Murod."Yulduzlar mangu yonadi" -Toshkent .:"Sharq", 2009.
4. To'ra Mirzayevning "O'zbek xalq maqollari" -Toshkent.: "Sharq", 2016.